

# "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ uchun intensiv bog'ni hamda ko'kalamzorlashtirishda foydalanish uchun 2 dona yer osti artezian quduqlarini burg'ulatish

// 12 September 2023 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/tender/dkz-artezipan-quduq>

**Buyurtmachi STIRi:** 206887857

**Buyurtmachi nomi:** "DEHQONOBOD KALIY ZAVODI" AJ

**Boshlanish sanasi:** 12-09-2023

**Tugash sanasi:** 19-09-2023

**Batafsil ma'lumot:** <https://etender.uzex.uz/lot/299018>

---

«Dehqonobod kaliy zavodi» aksiyadorlik jamiyatining intensiv bog'ini obodonlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz suv bilan ta'minlash uchun ikki dona artizan quduqlari burg'ilatish.

Xizmatni ko'rsatuvchi tomonidan texnik topshiriqda ko'rsatilgan xizmatlarni bajarishga buyurtmachi tomonidan berilgan texnik shartda ko'rsatilgan Ø159 mm metall trubalarni quyida ko'rsatilgan talablar asosida sifatli va kafolatlangan holda burg'ilab o'rnatish talab qilinadi:

- ko'rsatilgan joylardan quduqlarni kovlash;
- burg'ilangan quduqlar 100 metrdan 150 metrgacha pastlikda bo'lishi;
- burg'ilangan quduqlarga o'rnatiladigan trubalarning yer osti qum-shag'al qatlami oralig'ida harakatlanayotgan sizot suvlarga to'g'ri keladigan qismiga filtrlar o'rnatish;
- burg'ilangan quduqlarga o'rnatiladigan trubalarning tag qismi yopiq bo'lishi.